

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
TABIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.R.Usmanov, N.A.Suyarova, S.A.Normatov	
Cho'l turizmini hududiy tashkil etishning geografik xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida)	262
J.T.Makulov	
Sel toshqinlarining dinamik ko'rsatkichlarini baholash	268
I.Z.Akaboyev	
Qoradaryo havzasi muzliklarining balandlik xususiyatlari va morfologik turlari	274
Sh.Z.Jumaxanov A.A.Abdullayev	
O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmuasining tarmoq va hududiy tarkibi	280
A.F.Raxmatov	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligida bog'orchilik sohasining ahamiyati va istiqbollari	289
O.O.Baltabayev	
Qoraqalpog'iston oykonimiyasining spektral va stratigrafik tarkibi va undagi hududiy tafovutlar	294
B.R.Rapiqov	
Markaziy Osiyoda Sirdaryo suv resurslaridan hamkorlikda foydalanish masalalari.....	301
X.A.Abdugaliyev	
Aholi joylanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar	306
D.X.Yuldasheva	
Aholining demografik faolligi ijtimoiy-geografik obyekt sifatida.....	315
O.B.Abdurayimova	
Global iqlim o'zgarishi davrida o'rta Zarafshon havzasidagi suv omborlarining atrof-muhitga ta'siri	320
M.R.Qoriyev	
Namangan viloyatidagi sug'oriladigan yerlarning ikkilamchi sho'rlanish muammosi va uni bartaraf etish imkoniyatlari.....	331
R.T.Pirnazarov	
Tog' ko'llarining evolyutsiyasi, genetik tasniflari va o'ziga xos xususiyatlari.....	340

ILMIY AXBOROT

I.Sh.Tugizova	
<i>Achillea</i> L. turkumiga mansub ayrim dorivor turlar tahlili	344
D.I.Komilova, B.M.Sheraliyev	
Qoradaryo ixtiofaunasi: antropogen omilning faol ta'siridan oldin va keyin	348
I.Sh.Tugizova	
<i>Achillea mellifolium</i> L. o'simligining fitokimyoviy tarkibi va xalq tabobatida qo'llanilishi	355
O.M.Gafurova, Sh.A.Xalimov, B.M.Sheraliyev	
<i>Schizothorax</i> Heckel, 1838 (Teleostei: Cyprinidae) urug'ining qisqacha o'rganilish tarixi va hozirgi sistematik holati	355



UO'K: 911.372.2(575.172)

**QORAQALPOG'ISTON OYKONIMIYASINING SPEKTRAL VA STRATIGRAFIK TARKIBI
VA UNDAGI HUDUDIIY TAFOVUTLAR****СПЕКТРАЛЬНЫЙ И СТРАТИГРАФИЧЕСКИЙ СОСТАВ ОЙКОНИМИИ
КАРАКАЛПАКСТАНА И ЕЁ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ РАЗЛИЧИЯ****SPECTRAL AND STRATIGRAPHIC COMPOSITION OF THE OIKONYMY OF
KARAKALPAKSTAN AND ITS TERRITORIAL DIFFERENCES****Baltabayev Omirbay Oserbayevich** Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti (DSc) doktoranti, geografiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Ushbu maqolada toponimik spektr va toponimik stratigrafik qatlam haqida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bildirilgan ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, asosan oykonimlarning shakllanishi va til xususiyati jihatidan uzoq tarixga ega bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi oykonimiyasining spektral-stratigrafik tarkibi, ya'ni til segmentlari hamda turli davrlarda shakllangan til qatlamlari bo'yicha taqsimlanishi, ularning hududiy tafovutlari o'rganilgan va xaritasi ishlab chiqilgan. Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasi oykonimiyasining shakllanishida asosan qoraqalpoq, o'zbek, qozoq va turkman tillari yetakchilik qilishi aniqlangan.

Аннотация

В данной статье приведены сведения, высказанные зарубежными и отечественными учеными о топонимическом спектре и топонимическом стратиграфическом слое, в основном изучена спектрально-стратиграфическая структура ойконимии Республики Каракалпакстан, имеющей долгую историю с точки зрения формирования ойконимов и языковых особенностей, то есть распределение по языковым сегментам и языковым слоям, сформировавшимся в разные периоды, их территориальные различия и разработана карта. При этом установлено, что в формировании ойконимии Республики Каракалпакстан преобладают каракалпакский, узбекский, казахский и туркменский языки.

Abstract

This article presents information provided by foreign and domestic scientists on the toponymic spectrum and toponymic stratigraphic layer, mainly the spectral-stratigraphic composition of the oikonymy of the Republic of Karakalpakstan, which has a long history in terms of the formation of oikonyms and language features, that is, the distribution of language segments and language layers formed in different periods, their territorial differences were studied and a map was developed. It has been established that Karakalpak, Uzbek, Kazakh, and Turkmen languages are the main ones in the formation of the oikonymy of the Republic of Karakalpakstan.

Kalit so'zlar: kartografik usul, lingvistik usul, oykonim, stratigrafik qatlam, toponim, toponimik spektr, toponimik stratigrafiya.

Ключевые слова: картографический метод, лингвистический метод, ойконим, стратиграфический слой, топоним, топонимический спектр, топонимическая стратиграфия.

Key words: cartographic method, linguistic method, oikonym, stratigraphic layer, toponym, toponymic spectrum, toponymic stratigraphy.

KIRISH

Geografik nomlar tarixning uzluksiz vositasi sifatida u yerda asrlar davomida yashab kelgan xalqlarning turmush tarzi tufayli doimiy ravishda to'ldirilib, yangilanib, jamiyatning turli ehtiyojlariga xizmat qiladi. Toponimlar ko'pincha boy ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Toponimlarda atrofdagi tabiiy muhitning xilma-xilligi, tabiiy resurslarning mavjudligi, landshaftlarning xilma-xilligi, orografik, iqlim va gidrografik xususiyatlar, shuningdek, tabiiy va boshqa obyektlarning tashqi ko'rinishi va boshqa belgilari, hududning o'troqlashuvining tarixiy bosqichlari, odamlarning xo'jalik faoliyati, qadimiy migratsiya va millatlararo aloqalar, etnik guruhlarining yashash joylari, ko'p asrlar davomida mamlakatda sodir bo'lgan tarixiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tasvirlangan bo'ladi. Ular

GEOGRAFIYA

avlodlariga ajdodlarining mamlakat hududini tashqi dushmanlardan himoya qilgan qahramonliklarini eslatadi. Xalq ma'naviy boyligi va donishmandligining ulkan xazirasi bo'lgan geografik nomlar madaniyat va xalq og'zaki ijodi yodgorliklari sifatida alohida e'tiborga loyiqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Toponimika fanining ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan rivojlanishiga ko'plab geograf, tarixchi va lingvist olimlar o'zlarining behisob hissalarini qo'shishgan. Bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli hudud toponimlari, oykonimlarini stratigrafik qatlamlari bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Chet elda ayniqsa belarusli geograf-toponimist olim V.A.Juchkevichning ilmiy-tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. V.A.Juchkevich Sobiq Ittifoq hududi toponimlarining stratigrafik qatlamlarini o'rgangan va 5 ta qatlamga ajratib uni xaritalashtirgan [3; 4]. Shuningdek, Afrika hududida aniqlik G'arbiy Sahara cho'lida ispan toponimiyasining stratigrafik va tipologik tahlili I.A.Martynenko va O.S.Chesnokova [14], Rossiya Federatsiyasida xususan Adigeya Respublikasi oykonimlarining stratigrafik tahlili T.G.Tuova [9], O'rta Volga viloyati toponimlari stratigrafiyasining asosiy qonuniyotlari A.N.Porunov [8], Ukrainada xususan Janubi-G'arbiy Ukrainaning strato-toponimik qatlamlari va ularning tarixiy-geografik davrlar bilan bog'liqligi O.E.Afanasev [1], shuningdek qo'shni Qozog'iston Respublikasida esa Sharqiy Qozog'iston toponimlarini rivojlanish va stratigrafik qatlamlari B.Biyarov [12] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Mamlakatimiz geografik nomlarining stratigrafik qatlamlari haqida S.Q.Qorayev [13], Q.M.Hakimov [11] va A.Nizomov, G.Raximova, N.Rasulovalarning hammuallifligida nashr etilgan "Toponimika" nomli o'quv qo'llanmasida ma'lumotlar berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi aholi manzilgohlarining nomlari 2021-yil 1-yanvar holati bo'yicha ma'muriy-hududiy bo'linish masalalariga oid Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumi hamda Xalq deputatlari tuman Kengashlarining Qarorlari asosida olingan. Ushbu rasmiy hujjatlarga binoan respublikada 1-yanvar 2021-yil holatiga ko'ra 12 ta shahar, 26 ta shaharcha va 1113 ta qishloq aholi punkti, ya'ni jami 1151 ta aholi punkti mavjud bo'lgan [2]. Tadqiqot ishida joy nomlarining spektral-stratigrafik tarkibi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi oykonimlarining (1151 ta nom) mansub tillarini aniqlashda muallif tomonidan qoraqalpoq, o'zbek, qozoq, turkman tillarining izohli lug'atlari, Qoraqalpog'iston oykonimlariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, dissertatsiyalar hamda lingvistik ekspeditsiyalarning fond materiallaridan keng foydalanildi. Shuningdek, lingvistik, qiyoslash, statistik, kartografik va hududiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Toponimik stratigrafiya – ma'lum bir hudud toponimiyasini o'rganishda aniqlangan va tarixiy har xil ta'sirlar natijasida toponimik kolonka bo'ylab pastga va yuqoriga o'zaro kirish orqali bir-biriga ta'sir qiladigan har xil tarixiy, etnik jarayonlar va lingvistik ta'sirlar hosilasidir [5]. Toponimist olim Q.M.Hakimov toponimik stratigrafik qatlam haqida quyidagilarni qayd etadi: "Joy nomlari aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'lib, kelib chiqishi jamiyat hayoti, hududda yashayotgan yoki qachonlardir yashagan xalqlar tili bilan chambarchas bog'liq. Aniqlik aytganda, har bir tarixiy davr o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini uning geografik nomlarida ham ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, joy nomlarini paydo bo'lish davri bilan birga o'rganish maqsadga muvofiq. Albatta, har bir tarixiy davr joy nomlarining muayyan qatlamini hosil qilgan, aniqlik har bir qatlamning joy nomlarida o'ziga xos "izi, tamg'asi" mavjud" [10].

O'zbekiston toponimlarini ko'p yillar davomida tadqiq qilgan taniqli geograf-toponimist olim S.Q.Qorayev o'zining "Comparative characteristics of Uzbek and Kyrgyz toponymic vocabulary" nomli ilmiy maqolasida O'zbekiston va Qirg'iziston toponimlarini eron, turkiy tillar, mo'g'ul, arab va rus tili singari 5 ta stratigrafik qatlamga ajratgan [13].

Q.M.Hakimovning ilmiy-tadqiqot ishlarida O'zbekiston toponimlarining, xususan, Jizzax viloyati toponimlarining stratigrafik qatlamlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Olim Jizzax viloyati toponimlarini birinchi qatlam sug'd tiliga mansub toponimlar, ikkinchi qatlam fors-tojik tiliga xos toponimlar, uchinchi turkiy toponimlardan iborat qatlam, to'rtinchi qatlam arab tiliga mansub toponimlar, beshinchi qatlam mo'g'ul tiliga xos toponimlar va oltinchi qatlam rus tiliga mansub toponimlar singari oltita qatlamni ajratib ko'rsatib o'tgan [11].

Shu bilan birga, A.Nizomov, G.Raximova, N.Rasulovalarning hammuallifligida nashr etilgan "Toponimika" nomli o'quv qo'llanmasida ham Respublikamiz toponimlarining stratigrafik qatlamlari eng qadimgi qatlam; turkiy tildagi toponimlar qatlami; sug'di tilidagi toponimlar qatlami; forsi tilidagi toponimlar qatlami; yunon tilidagi toponimlar qatlami; sanskrit tilidagi toponimlar qatlami; xitoy tilidagi toponimlar qatlami; arab tilidagi toponimlar qatlami; mo'g'ul tilidagi toponimlar qatlami; slavyan tillaridagi toponimlar qatlami; eng yangi qatlam sifatida jami 11 qatlamga ajratilgan [6].

Toponimik spektr deb muayyan hududdagi toponimlarning turli tillarga xos tarzda shakllanishiga aytiladi [5; 7]. U tarixiy kategoriya bo'lib, vaqt o'tgan sari o'zgarib boradi. Hozirgi bosqichda toponimik spektrda asosiy o'rinni egallab turgan til (*toponimik fon*) o'tmishda tegishli hudud toponimiyasida umuman yo'q bo'lgan bo'lishi mumkin, yoki aksincha hozir tobe o'rinni egallagan til bir paytlar o'rganilayotgan hududda toponimik fonni tashkil etgan bo'lishi mumkin. Bunday o'zgarishlarning sababi ko'pgina holatlarda aholi milliy tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi [3]. 1-jadvalda respublika tumanlari oykonimiyasining toponimik spektrlari bo'yicha raqamli ma'lumotlar keltirilgan, shuningdek, bu mavzuda maxsus toponimik xarita ham muallif tomonidan tuzildi (1-rasm).

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi oykonimiyasining toponimik spektri

Jami oykonimlar		Shundan, muayyan tilga mansub bo'lgan oykonimlar soni va ulushi									
		Qoraqalpoq	O'zbek	Qozoq	Turkman	Xorazmiy	Arab	Fors	Sug'd	Rus	Noaniq
1. Amudaryo tumani											
Soni	129	10	98	9	2	0	4	3	0	0	3
Foizi	100	7,8	76	7	1,5	0	3,1	2,3	0	0	2,3
2. Beruniy tumani											
Soni	71	3	57	8	2	0	0	0	1	0	0
Foizi	100	4,2	80,3	11,3	2,8	0	0	0	1,4	0	0
3. Bo'zatov tumani											
Soni	26	25	0	0	0	1	0	0	0	0	0
Foizi	100	96,1	0	0	0	3,9	0	0	0	0	0
4. Kegeyli tumani											
Soni	132	128	0	4	0	0	0	0	0	0	0
Foizi	100	96,9	0	3,1	0	0	0	0	0	0	0
5. Mo'ynoq tumani											
Soni	22	19	0	2	0	0	0	1	0	0	0
Foizi	100	86,5	0	9	0	0	0	4,5	0	0	0
6. Nukus tumani											
Soni	40	33	2	5	0	0	0	0	0	0	0
Foizi	100	82,5	5	12,5	0	0	0	0	0	0	0
7. Taxiato'sh tumani											
Soni	32	15	12	1	4	0	0	0	0	0	0
Foizi	100	46,9	37,5	3,1	12,5	0	0	0	0	0	0
8. Taxtak'o'pir tumani											
Soni	40	38	0	2	0	0	0	0	0	0	0
Foizi	100	95	0	5	0	0	0	0	0	0	0
9. To'rtko'l tuamni											
Soni	92	2	69	5	12	0	2	1	0	0	1
Foizi	100	2,2	75	5,4	13	0	2,2	1,1	0	0	1,1
10. Xo'jayli tumani											
Soni	64	42	8	7	2	0	4	1	0	0	0
Foizi	100	65,6	12,5	10,9	3,2	0	6,3	1,5	0	0	0

GEOGRAFIYA

11. Chimboy tumani											
Soni	120	116	0	3	0	0	1	0	0	0	0
Foizi	100	96,7	0	2,5	0	0	0,8	0	0	0	0
12. Shumanay tumani											
Soni	105	98	3	1	2	0	0	0	1	0	0
Foizi	100	93,3	3	0,9	1,9	0	0	0	0,9	0	0
13. Ellikqal'a tumani											
Soni	92	6	73	8	3	0	0	1	0	1	0
Foizi	100	6,5	79,3	8,7	3,3	0	0	1,1	0	1,1	0
14. Qanliqo'l tumani											
Soni	39	32	3	2	0	0	1	1	0	0	0
Foizi	100	82	7,7	5,1	0	0	2,6	2,6	0	0	0
15. Qorao'zak tumani											
Soni	97	90	0	5	0	1	1	0	0	0	0
Foizi	100	92,8	0	5,1	0	1,05	1,05	0	0	0	0
16. Qo'ng'iro't tumani											
Soni	48	41	4	1	0	1	0	1	0	0	0
Foizi	100	85,4	8,3	2,1	0	2,1	0	2,1	0	0	0
17. Nukus shahri											
Soni	2	2	0	0	0	0	0	0	0	0	0
Foizi	100	100	0	0	0	0	0	0	0	0	0
Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha											
Soni	1151	700	329	63	27	3	13	9	2	1	4
Foizi	100	60,8	28,6	5,5	2,3	0,3	1,1	0,8	0,2	0,1	0,3

Jadval muallif tomonidan bajarilgan o'rganishlar asosida tuzilgan.

Amudaryo tumanida jami 1 ta shahar, 4 ta shaharcha va 124 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 98 tasi, ya'ni 76% i o'zbek tiliga mansub. Shu bilan birga tumanning shimoli-sharqiy Nukus shahriga yaqin joylashgan hududlarida qoraqalpoq va qozoq tiliga mansub oykonimlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Arab va fors tillariga mansub oykonimlar esa asosan Xiva xonligi davriga tegishli bo'lgan tarixiy terminlar yordamida yasalganligini ko'ramiz.

Beruniy tumanida jami 1 shahar, 1 ta shaharcha va 69 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 57 tasi, ya'ni 80,3% i o'zbek tiliga mansub. Tuman oykonimlari nomlarida qozoq tiliga mansub oykonimlar ham uchraydi va ular, asosan, tumanning cho'l-yaylov hududlarida ko'proq tarqalgan. Yana bir xususiyat shundan iboratki, tuman oykonimlarining tahlili ko'pchilik qoraqalpoq va qozoq tiliga mansub oykonimlar bir-birlariga yaqin joylashganligini ham kuzatamiz.

Bo'zatov tumanida 1 ta shaharcha va 25 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 25 tasi, ya'ni 96,1% i qoraqalpoq tiliga mansub. Tumanning hokimiyat tomonidan qo'yilgan faqat bitta Xiva oykonimidan boshqa barcha oykonimlar qoraqalpoq tiliga mansub. Bo'zatov tumani oykonimlarining asosiy qismi tabiiy-geografik ob'ektlardan nom olgan oykonimlar hisoblanadi. Ma'lumki, tabiiy-geografik obyekt nomlari oykonimlardan farqli turda ko'p o'zgarishga uchramaydi. Ular juda uzoq yashaydigan nomlar sirasiga kiradi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qoraqalpoq xalqi azal-azaldan shu hududda yashab tirikchilik qilgan.

Kegeyli tumanida 1 shahar, 1 ta shaharcha va 130 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 128 tasi, ya'ni 96,9% i qoraqalpoq tiliga mansub. Bilamizki, etnotoponimlar orqali xalqlarning tarqalish areallarini aniqlash mumkin. Kegeyli tumani Amudaryo deltasidagi qoraqalpoqlarning qadimdan zich joylashgan hududlaridan biri hisoblanadi. Buni biz tuman hududida tarqalgan ko'plab qoraqalpoq etnotoponimlaridan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Mo'ynoq tumanida 1 shahar va 21 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 19 tasi, ya'ni 86,5% i qoraqalpoq tiliga mansub. Orol dengizi sohilida qoraqalpoq va qozoqlarning qadimdan baliqchilik bilan shug'ullangan hududlaridan biri hisoblanadi. Tuman aholisi tarkibini hozir ham qoraqalpoq va qozoq millati vakillari tashkil qiladi.

Nukus tumanida 1 ta shaharcha va 39 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 33 tasi, ya'ni 82,5% i qoraqalpoq tiliga mansub. Tuman Amudaryo deltasining qadimdan qoraqalpoq xalqining zich joylashgan hududlaridan biri hisoblanadi. Tuman hududida qoraqalpoq etnotoponimlarining ko'pligi azaldan qoraqalpoq xalqining o'troq turmush kechirishini bildiradi.

Taxiatosh tumanida 1 shahar, 1 ta shaharcha va 30 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 15 tasi, ya'ni 46,9% i qoraqalpoq tiliga mansub. Shuningdek tuman oykonimlari Qoraqalpog'istonning boshqa shimoliy tumanlariga nisbatan o'zbek va turkman tiliga mansub oykonimlarning ulushi jihatidan alohida ajralib turadi. Tarixdan ma'lumki, tuman hududi ilgari ma'lum vaqt davomida Xiva xonligi qo'l ostida bo'lganligi o'zbek tiliga mansub oykonimlarning paydo bo'lishiga va janub tomondan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh hududlarda turkman tiliga mansub oykonimlarning paydo bo'lishiga asosiy sabab bo'lgan.

Textako'pir tumanida 1 ta shaharcha va 39 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 38 tasi, ya'ni 95% i qoraqalpoq tiliga mansub. Textako'pir tumani hududi bir tomondan tarixan ilgari Orol dengizining janubiy sohili, daryoning delta hududi va ikkinchi tomondan Qizilqum qumligi bilan chegaradoshligi bilan xalqlarning hududiy tarqalishiga sabab bo'lgan. Hammamizga ma'lumki, qoraqalpoqlar qadimdan Amudaryo deltasida yashab tirikchilik qilgan, asosan dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lsa, qozoqlar esa cho'l-yaylov hududlarda asosan chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Bu esa oykonimlarning asosiy qismi qoraqalpoq va sharqiy qumloq cho'l hududlarda esa nisbatan qozoq tiliga mansub oykonimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

To'rtko'l tumanida 1 shahar, 5 ta shaharcha va 86 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 69 tasi, ya'ni 75% i o'zbek tiliga mansub. Tuman hududi daryo deltasida joylashganligi va bir tomondan Qizilqum bilan chegaradoshligi xalqlarning hududiy tarqalishiga sabab bo'lgan. Tuman hududida tarixan o'zbek, shuningdek, turkman, qozoq millati vakillari yashaydi. O'zbeklar asosan daryo deltasi hududida tarqalgan bo'lsa, turkman va qozoq millati vakillarining ko'pchilik qismi esa chorvachilik uchun qulay sanalgan Qizilqum qumiga chegaradosh bo'lgan chekka cho'l-yaylov hududlarida tarqalgan. Bu esa oykonimlarning til xususiyatida ham yaqqol namoyon bo'lgan.

Xo'jayli tumanida 1 ta shahar, 1 ta shaharcha va 62 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 42 tasi, ya'ni 65,6% i qoraqalpoq tiliga mansub. Ma'lumki, tuman hududi ilgari ma'lum vaqt davomida Xiva xonligi qo'l ostida bo'lganligi o'zbek tiliga mansub oykonimlarning paydo bo'lishiga va janubdan Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh hududlarda turkman tiliga mansub oykonimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, tumanning chorvachilikka qulay bo'lgan hududlarida qozoqlar ham ko'plab tarqalganligini ko'ramiz.

Chimboy tumanida 1 ta shahar, 1 ta shaharcha va 118 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 116 tasi, ya'ni 96,7% i qoraqalpoq tiliga mansub. Chimboy tumani Kegeyli tumani singari Amudaryo deltasidagi qoraqalpoqlarning qadimdan zich joylashgan hududlaridan biri hisoblanadi. Buni biz tuman hududida tarqalgan ko'plab qoraqalpoq etnotoponimlaridan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Shumanay tumanida 1 shahar va 104 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 98 tasi, ya'ni 93,3% i qoraqalpoq tiliga mansub. Shuningdek, tarixdan ma'lumki, tuman hududi Xiva xonligi qo'l ostida bo'lganligi ba'zi o'zbek tili oykonimlarining va Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh hududlarda turkman tili oykonimlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.


Elikqal'a tumanida 1 ta shahar, 1 ta shaharcha va 90 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 73 tasi, ya'ni 79,3% i o'zbek tiliga mansub. Tuman hududi daryo deltasida joylashganligi va shimoldan Qizilqum bilan chegaradoshligi xalqlarning hududiy tarqalishiga sabab bo'lgan. O'zbeklar asosan daryo deltasi hududida tarqalgan bo'lsa, turkman va qozoq millati vakillarining ko'pchilik qismi chorvachilik uchun qulay sanalgan Qizilqum cho'lga chegaradosh bo'lgan chekka cho'l-yaylov hududlarida tarqalgan.

Qanliko'l tumanida 1 ta shaharcha va 38 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 32 tasi, ya'ni 82% i qoraqalpoq tiliga mansub. Oykonimlarning asosiy qismi qoraqalpoq tiliga mansubligi bilan birga o'zbek va qozoq tillariga tegishli oykonimlar tumanning o'zbek millati nisbatan ko'proq yashaydigan Qo'ng'iro't tumaniga chegaradosh hududlarda tarqalgan.

Qorao'zak tumanida 1 ta shaharcha va 96 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 90 tasi, ya'ni 92,8% i qoraqalpoq tiliga mansub. Tuman hududi qoraqalpoqlarning qadimdan zich joylashgan daryo deltasiga, shuningdek, Qizilqumning chekka hududiga to'g'ri keladi. Tumanda qoraqalpoqlar bilan birga chekka hududlarda qozoqlar ham yashab istiqomat qilishadi.

GEOGRAFIYA

Qo'ng'iro't tumanida 1 shahar, 5 ta shaharcha va 42 ta aholi punkti mavjud bo'lib, shundan 41 tasi, ya'ni 85,4% i qoraqalpoq tiliga mansub. Qo'ng'iro't tumani hududida qoraqalpoq, o'zbek va qozoq millati vakillari qadimdan yashab kelgan. Ma'lumki, bu hududlar ma'lum vaqt davomida Xiva xonligiga qarashli bo'lgan va katta markazlardan biri sanalgan.



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi oykonimlarining til tarkibi xaritasi
Xarita muallif tomonidan tuzilgan

Tahlil natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy, ya'ni Bo'zatov, Kegeyli, Mo'ynoq, Nukus, Taxiatosh, Taxtak'o'pir, Xo'jayli, Chimboy, Shumanay, Qanliko'l, Qorao'zak va Qo'ng'iro't tumanlarida qoraqalpoq tili oykonimik fonni hosil qilsa, janubiy, ya'ni Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlarida esa o'zbek tili oykonimik fonni hosil qiladi.

Qoraqalpoq tiliga mansub oykonimlar respublikaning hamma hududlarida tarqalgan bo'lsa, qozoq tiliga mansub oykonimlar Bo'zatov tumanidan boshqa barcha tumanlarda tarqalgan. Bo'zatov, Kegeyli, Mo'ynoq, Taxtak'o'pir, Chimboy va Qorao'zak tumanlaridan boshqa barcha tumanlarda o'zbek tiliga mansub oykonimlar tarqalgan. Qoraqalpog'istonning janubiy tumanlari va Turkmaniston bilan chegaradosh bo'lgan hududlarda esa turkman tiliga mansub oykonimlarning tarqalganligi kuzatiladi.

Qoraqalpoq va o'zbeklar asosan dehqonchilik uchun qulay bo'lgan Amudaryo daryosining delta qismida, qozoqlar va turkmanlar esa chorvachilik uchun qulay bo'lgan cho'l-yaylov hududlarda ko'proq tarqalganligi bu oykonimlarning hududiy tafovutlarida ham yaqqol namoyon bo'lgan. Arab, fors va boshqa tillar bilan atalgan oykonimlarni asosan markaziy hududlar va janubiy tumanlarda ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Umuman olganda ilmiy-tadqiqotlarimiz davomida oykonimlarning tahlillari bo'yicha yuqorida ko'rsatilgan qatlamlardan Qoraqalpog'iston hududida eng katta guruhni turkiy tildagi toponimlar va kam miqdorda boshqa fors, sug'd, arab, xorazmiy tillariga mansub toponimlar tashkil qilganligini aniqladik. Hammamizga ma'lumki, Qoraqalpog'iston hududida qadimdan tili, dini, madaniyati va urf-odati bir-biriga juda yaqin bo'lgan qoraqalpoq, o'zbek, qozoq va turkman singari turkiy tilli xalqlar yashagan. Shu sababli hudud toponimlari, ayniqsa, oykonimlarining asosiy qismini turkiy tilli toponimlar qatlami tashkil qiladi. Bunda eng katta qismi qoraqalpoq, ikkinchisi o'zbek, uchinchisi qozoq, to'rtinchisi turkman va kam miqdorda arab, fors, sug'd, xorazmiy tillariga mansub toponimlarni ham uchramiz. Bunda eng katta tafovut Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlari qoraqalpoq tilidagi va janubiy tumanlari esa o'zbek tilidagi oykonimlarning hissasi juda kattaligi bilan yaqqol ajralib turishini ko'ramiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Афанасьев О.Е. Топонимическая стратиграфия в изучении истории регионального природопользования // Материалы чтений, посвященных 95-летию со дня рождения доктора географических наук, профессора В.А.Жучкевича. – Минск: Изд-во БГУ, 2011. – С. 14-16.
2. Балтабаев О.О. Қорақалпоғистон Республикаси ойконимларининг ижтимоий-географик тахлили. География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2022. – 45 б.
3. Жучкевич В.А. Общая топонимика. – Минск: Вышэйшая школа, 1968. – 432 с.
4. Жучкевич В.А. Общие и региональные географические закономерности топонимики. Дисс. ... д.г.н. – Минск: 1970. – 676 с.
5. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974. – 382 с.
6. Низомов А., Рахимова Г., Расулова Н. Топонимика. – Т.: Sharq, 2013. – 120 б.
7. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1978. – 198 с.
8. Порунов А.Н. Основные закономерности стратиграфии топонимов Среднего Поволжья // Электронный научный журнал «Наука. Общество. Государство». 2014 № 4 (8). – С. 1-10.
9. Туова Т.Г. Стратиграфический анализ ойконимов Республики Адыгея // Рецензируемый, реферируемый научный журнал «Вестник АГУ». 2013. Выпуск 4 (125). – С. 82-87.
10. Ҳақимов Қ.М. Жой номларининг шаклланишида минтақанинг ижтимоий-иқтисодий географик хусусиятлари (Жиззах вилояти мисолида). Г.ф.н. ... дисс. автореферат. – Т.: 2010. – 25 б.
11. Ҳақимов Қ. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах: Сангзор, 2014. – 204 б.
12. Biyarov B. East Kazakhstan toponyms development and stratigraphy // The Kazakh-American Free University Academic Journal. – USA, Oregon, 2011. – P. 165-172.
13. Karaev S. Comparative characteristics of Uzbek and Kyrgyz toponymic vocabulary. Eighth United Nations Conference on the Standardization of Geographical Names. Berlin, 27 August-5 September 2002. – P. 1-9.
14. Martynenko I.A., Chesnokova O.S. Hispanic toponymy of Western Sahara: Stratigraphic and typological analysis. Training, Language and Culture, 2022. 6(1), 75-85. doi:[10.22363/2521-442X-2022-6-1-75-85](https://doi.org/10.22363/2521-442X-2022-6-1-75-85)